



DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOY HIMOYA HARAJATLARI

Ilhomjon Qosimov, Muhiddin Qozoqboyev, Mamasoliyev Sayfiddin

TDIU MMT-95 guruh talabalari

Annotatsiya : Ushbu maqolada ijtimoiy himoya xarajatlari va uning davlat byujetidagi ulushi haqida ma'lumotlarni tutgan o'rni tahlil qilingan. Maqolani o'qish davomida o'zingizga kerakli va sizni qiziqtirgan ko'plab savollarga javob topasiz degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: Davlat byudjeti, ijtimoiy himoya, xarajatlar, nafaqa, pensiya, ijtimoiy yorda, Davlat byudjet kodeksi

KIRISH.

Har bir mamlakatning umumiy mablag'i bo'ladi. Uni biz byudjet deb ataymiz. Davlat byudjeti muayyan davrdagi daromadlar va xarajatlar majmuyidir. Davlat byudjeti ikkita asosiy qismdan; xarajatlar va daromadlardan iborat bo'ladi. Byudjetga mablag'lar asosan soliqlardan va tabiiy boyliklarni sotishdan yig'iladi. Bu yig'ilgan mablag'lar xalq hayotini yaxshilash uchun jamiyat manfaati uchun ishlatiladi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjetidan har xil soha uchun ajratmalar to'g'ri sarflanadi, ya'ni byudjetga yig'ilgan pullar maqsadli ishlatiladi, to'g'riroq'i manziliga yetib boradi. Byudjetdagi ajratmalar sohalar bo'yicha taqsimlangandan so'ng, jamoatchilik ko'z ongida shaffoflik bilan oshkorona o'z manziliga yetib boradi. Bu esa o'sha sohaning yanada rivojlanishiga olib keladi va o'z-o'zidan davlatning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Rivojlanmagan davlatlarda esa davlat byudjeti tomonidan taqsimlangan mablag'lar har xil idora va tashkilotlardan o'tib, u jamoatchilik nazarida bo'lmaydi va mablag'lar o'z manziliga to'liq yetib bormaydi. Bu holatlar ko'p qaytalanishi natijasida sohalar rivojlanmay qoladi. Bu esa davlatni nufuziga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu holat hamma mamlakatlarda

emasu, aksariyat rivojlanmagan mamlakatlarda kuzatiladi. Shuning uchun ham mamlakat rivojlanishi uchun byudjet mablag'larini to'g'ri sarflanishini yo'lga qo'yishi, oshkoralik, shaffoflikni ta'minlashi zarur. O'sha kuzatuvchilarni aksariyati aholi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni omma oldida adolatli foydalaniladi. Zero, faqatgina davlat tomonidan qo'yilgan kuzatuvchilar qachondir sotiladi, va o'z navbatida ularni tekshirib turganlar ham o'z manfaati uchun sotiladi. Shuningdek, shu kabi sohalarga ajratiladigan ajratmalar davlat byudjetini xarajatlar qismini tashkil qiladi. Endi davlat byudjetini daromadlar qismini oladigan bo'lsak, u davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliqlar va soliq bo'lmagan manbalardan yig'iladigan puldir.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Dastlab ijtimoiy himoya haqida gaplashib o'tsak, ijtimoiy himoya - keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma'noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi.¹

Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat ijtimoiy himoya ning asosiy yo'nalishlari:

- ✓ erkin ijtimoiy iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash;
- ✓ ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi;
- ✓ Iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish;

¹. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_himoya

✓ ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Ijtimoiy himoya xarajatlari, insonlarning qonuniy va iqtisodiy himoyasiga yo'naltirilgan moliyaviy resurslardir. Bu xarajatlar, qonun huzurini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish, korxonalar va shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash va o'zgaruvchanliklar bilan kurashish uchun kerak bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun sarflangan mablag'lardir. Ijtimoiy himoya xarajatlari, davlat tomonidan amalga oshiriladi va jamiyatning umumiy yaxshilik va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Ijtimoiy himoya xarajatlari Byudjet kodekisi 13-bob(Davlat byudjet xarajatlari) 69- moddasi (davlat byudjetining xarajatlari tartibi) 2- bandida (ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab –quvvatlash xarajatlari) 2 qismida keltirilgan. Davlat budjeti xarajatlari 2015-2023 yil ijrosi 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval


**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari²
(mlrd.so'm)**

Yillar	I kvartal	II kvartal	III kvartal	IV kvartal	Yillik
2015	4 200	9 508,7	14 566,9	20 447,1	20 447,1
2016	4 917,6	10 780,4	16 413,3	22 766	22 766
2017	5 670,8	12 363,9	19 307	27 009,3	27 009,3
2018	7 021,5	16 996,8	26 070	39 251,3	39 251,3
2019	11 940,8	27 939,6	42 881,3	59 416,7	59 416,7
2020	13 936,7	30 117,8	45 096,1	63 176,7	63 176,7
2021	15 819,3	36 859,9	56 270,9	80 671,8	80 671,8
2022	21 308	49 105,3	74 399,2	105 589,1	105 589,1
2023	26 369,2	58 086,6	87 205,5	122 348,7	122 348,7

2015-2023 yillar davomida davlat byudjet ijtimoiy himoya xarajatlari yillar davomida o'sib bordi. Davlat byudjetdan aholiga ijtimoiy himoya xarajatlari yillar

² <https://openbudget.uz/outcomes>

davomida ko'proq pul ajratilyapdi. 2015- yildan 2023-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida 101901,6 mlrd. so'mga oshgan. 1-rasmda ham buni ko'rishimiz mumkin



1-rasm .Ijtimoiy himoya xarajatlari.³

2023 yil davlat byudjeti tasdiqlandi. Ijtimoiy himoya xarajatlariga kiruvchi Unga ko'ra eng ko'p mablag` ta'limga (58.4 trln so'm) yo'naltirilmoqda. Bu 2023 yil byudjetining qariyb 10 foizini tashkil etadi.

Senatning 36-yalpi majlisida "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun ma'qullangan⁴. Unga ko'ra;

- *ta'lim sohasi xarajatlari 58,4 trln. so'm,*
- *sog'liqni saqlash sohasiga 28,4 trln. so'm,*
- *madaniyat sohasiga 2,5 trln. so'm*
- *sport sohasiga 2,3 trln. so'm,*
- *fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 1,8 trln. so'm yo'naltirilgan.*

Davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun 18,1 trln. so'm ajratilishi ko'zlangan.

Shuningdek, 52 mingdan ortiq daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga ipoteka krediti bo'yicha dastlabki

³ <https://openbudget.uz/outcomes>

⁴ <https://lex.uz/docs/-6636282>

badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan 1,1 trln. so`m subsidiyalar to`lab berilishi ko`zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari, sosial programlar, tibbiyot, ta'lim, ma'rifat va boshqa sohalardagi moliya resurslarini o'z ichiga oladi. Bu harajatlar davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash va mustahkamlash uchun sarflanadi. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari, sosial taminot, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarda ijtimoiy himoya bo'yicha xizmatlarni ta'minlash uchun sarflangan mablag'lardir. Bu harajatlar yagona bir qismini tashkil etadi va davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy himoya harajatlari dastlabki qatlamda fuqarolarning asosiy ihtiyotlarini qondirish va ularni himoya qilish maqsadida sarflanadi. Bu harajatlar o'z ichiga pensiyalar, yordam va to'lovlarni kirib olish, tibbiyot xizmatlardan foydalanish, ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatlaridan foydalanish va boshqa ko'plab xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolar uchun kerakli xizmatlarni ta'minlash va ularni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu harajatlarning samaradorligi va samarali tartibi uchun esa davlatning moliyaviy resurslari va boshqa imkoniyatlari juda muhimdir. Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni beramiz.

1. Ijtimoiy himoya harajatlari o'zaro bog'liq bo'lgan sohalarda o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.
2. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari to'g'ri taqsimlanishi va samarali ishlatilishi aholining ma'naviy va jismoniy tarbiyasini ta'minlaydi.
3. Ijtimoiy himoya harajatlari bilan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va dasturlar aholining hayot sifatini yaxshilaydi.

TAKLIFLAR

1. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari to'g'ri va samarali taqsimlanishi uchun moliya resurslarini mustahkamlashtirish kerak.
2. Ijtimoiy himoya harajatlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati

va mavjudlik darajasini oshirish uchun monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish zarur.

3. Ijtimoiy himoya harajatlari bilan bog'liq bo'lgan sohalarda aholining ishtirokini oshirish uchun ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini rivojlantirish lozim.

4. Davlat byudjetining ijtimoiy himoya harajatlari to'g'ri va samarali tartibda taksimlanishi kerak. Bu bilan birga, bu harajatlarning samaradorligi va fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratish uchun qo'llaniladigan moliyaviy resurslar juda muhimdir.

5. Ijtimoiy himoya harajatlari tuzilishi va boshqarilishi davlat organlarining effektiv ishlashiga bog'liqdir. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar samaradorligini oshirish uchun nazarda tutilmalidir.

6. Fuqarolar va jamiyatning ijtimoiy himoyaga oid e'tirof etilgan muammolari va talablari tez orada hal etilishi kerak. Bu bilan birga, davlatning ijtimoiy himoya harajatlari bilan bog'liq moliyaviy resurslarining samaradorligi va ishlab chiqarilishi ham oshirilishi kerak.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://openbudget.uz/outcomes>.

2. <https://lex.uz/docs/-66362824>

3. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya-O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya 2018

4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA". 2007. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya". 2019. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA". 2008.

7. O'roqov U. Mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirishning zamonaviy muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. TMI 2022 yil. O'roqov. Mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirishning huquqiy asoslari.- Science and Education, 2023. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati // RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.